

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI O'QISHGA O'RGATISH DARSLARIDA  
FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNI O'QITISH METODIKASI

O'roqboyeva Hilola Alisherovna

*Master of Termiz University of Economics and Service*

*Supervisor: Aliboyeva N*

*PhD at Termiz State University*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatish darslarida frazeologik birikmalarni o'qitish metodikasi masalalari yoritib berilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Frazeologik birliklar va ularni o'qitishdagi muammolarga alohida to'z talib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, metodika, yuqori sinf o'quvchilari, tilshunoslik.*

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlarlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar Frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, Frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlarlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniklash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va



boshqa. Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni oʻrganish, tasniflash va lugʻatlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan oʻziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatik vazifaviyuslubiy asoslarga kura tasnif etiladi. Struktursemantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmogʻi sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo boʻlgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan boʻlsa, barqaror (turgʻun) soʻz birikmalarini alohida tilshunoslik boʻlimi — Frazeologiyada oʻrganish masalasi 20—40-yillardagi oʻquv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida koʻtarib chiqilgan. Gʻarbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida ajratilmaydi.

Oʻzbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar oʻtgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan oʻrganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yoʻldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya boʻyicha bir necha lugʻatlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus toʻplamlar chiqaruvchi markaz faoliyat koʻrsatgan.

Bilamizki, tilimizdagi asosiy frazeologik birlik bu iboradir. Yuqori sinflarda iboralarni oʻqitishda turli metodlardan foydalanamiz.

Darsliklarda iboralar mavzusi oʻquvchilar uchun hamisha qiziqarli va eʼtibortalab mavzu boʻlib qolaveradi. Iboralar tilimizda soʻzlar bilan teng baravar ishlatilaveradiki, bizlar baʼzan iborani qoʻshma soʻzdan yoki soʻz birikmasidan farqlamaymiz. Oʻqituvchi oʻquvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadini koʻzlagan darsda quyidagi kabi topshiriqlardan foydalanishi mumkin:

*1-topshiriq. Ibora ifodalagan maʼno qatorini ||Iboralar sandigʻidan|| dan mosini tanlab toʻldiring.*



lapashang, ..... bemehr, ..... aralashmoq, ....  
xafa, ... xursand, ... tanti, ... ziqna, ... gapirmaslik, ...

”IBORALAR SANDIG’I” DAN			
ammamni ng buzog’i	burnini tiqmoq	ko’ngli xira	bag’ri tosh
fe’li keng	terisiga sig’maydi	og’zing qani desa, qulog’ini ko’rsatadi	dili xufton
boshi osmonda	diydas qattiq	ko’nli yorishmagan	og’zi qulog’ida
qovog’i etagida	gapida turadigan	fe’li tor	qovog’i soliq
burganin g ko’zini ko’rgan	mum tishlamoq	lom-mim demaslik	qishda qor bermaydigan

**2- topshiriq.** Yuqoridagi iboralarni qatnashtirib (o’zingiz bilgan asar qahramonlari xarakterini tavsiflovchi) gaplar tuzing.

**Namuna:** Solih Mahdum birovga qishda qor bermaydigan odam edi.

**3- topshiriq.** ||Iboralarning izohli lug’ati||dan o’zingizga notanish bo’lgan 10ta iborani tanlab yozing.

**Namuna:** dumi xurjunda (chala).....

**4- topshiriq.** Berilgan iboralarni o’qing. Ular mazmunan qaysi so’zga teng kelishini aniqlang va jadval asosida zid ma’noli iboralarni juftlang.

zid ma’nosi bor iboralar	zid ma’nosi bor iboralar	r
do’ppisi yarimta—1	suvga tushgan nonday—1	aqa m - lar
tesha tegmagan—2	og’zing tanobi qochmoq—2	



umr ko'rmoq—3	kayfi chog'— —3	
turib olmoq—4	yeng shimarib— —4	
qo'ldan bermoq—5	pesho nasi yaraqlaga n—5	
qalbi pok—6	yurag i tor—6	
ta'bi tirriq—7	ko'ngl i shod— 7	
yeng uchida—8	yer tishlamoq —8	
manglayi sho'r—9	alims oqdan qolgan— 9	
ochiq qo'l—10	nasib asi uzilmoq— —10	
yuragi qon—11	yon bermoq— —11	
pixini yorgan—12	tegir mondan butun chiqadiga n—12	
qahri kelmoq—13	qo'lga kiritmoq— —13	



zid ma'nosi bor iboralar	zid ma'nosi bor iboralar	yurag i qora— 14
do'ppisi yarimta—1	suvga tushgan nonday—1	
tesha tegmagan— -2	og'zining tanobi qochmoq—2	
umr ko'rmoq— 3	kayfi chog'—3	
turib olmoq—4	yeng shimarib—4	
qo'ldan bermoq— -5	5 peshonasi yaraqlagan—	
qalbi pok—6	yuragi tor—6	
ta'bi tirriq—7	ko'ngli shod—7	
yeng uchida—8	yer tishlamoq—8	
manglayi sho'r—9	alimsoqdan qolgan—9	
ochiq qo'l—10	nasibasi uzilmoq—10	
yuragi qon— 11	yon bermoq—11	
pixini yorgan— 12	tegirmondan butun chiqadigan—12	
qahri kelmoq— 13	qo'lga kiritmoq—13	
qo'ldan qochmoq— - 14	yuragi qora—14	
qo'ldan qochmoq— 14		

Topshiriq ijrosi quyidagi natijani berishi kerak:

Xulosa o'rnida aytish kerakki, frazeologik birliklarni o'rganishda va o'qitishda turli innovatsion metodlardan foydalanish orqali o'quvchi ularni tez o'zlashtiradi va o'z nutqida qo'llay oladi. Bu kabi birliklarning nutqda qo'llanilishi uning jozibadorligini oshiradi va nutq kishisining darajasini belgilab beradi.



REFERENCES:

1. SH. Rahmatullaev O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi. 1978.
2. F. Jumaeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim leksemalar tadqiqi. Monografiya. Toshkent. “Qaqqus Mediya” Toshkent 2019.
3. Абдиназаров, У. (2023). INGLIZ VA O ‘ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(9).
4. Raimov, L. (2023). THE BASIC BRANCHES OF LINGUISTICS. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 3), 178-180.
5. ХАМРАЕВА, Р. Р. ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АНГЛОЯЗЫЧНОЙ НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКИ XX ВЕКА АЙЗЕКА АЗИМОВА" Я, РОБОТ. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука", 30-32.
6. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. –Toshkent: Fan, 2005.
7. Jabborova, S. (2023). TIBBIYOTGA OID TERMINLARNING TARJIMASI VA LUG‘ATLARDA BERILISHI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 3), 174-177.
8. Хошимхужаева, М. М. (2017). Мотивологический анализ английских, русских и узбекских фитонимов с компонентом-антропонимом. Проблемы истории, филологии, культуры, (1 (55)), 369-378
9. Mustafqulova, Z. B. qizi. (2022). HOW TO USE PEDAGOGICAL TERMS TO DESIGN EXCELLENT LEARNING ENVIRONMENT. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 47–51.
10. Sirojiddinov SH., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.
11. Sattarova Yelena 2023. DESCRIPTION OF THE STATUS OF PROFESSIONALISMS IN THE PROCESS OF COMMUNICATION AND FEATURES OF ITS FUNCTIONING. International Conference on Social and Humanitarian Research. (Jun. 2023), 41–43.

